# LOGISTIKA TIZIMIDA TAQSIMOT OMBORLARIGA MAHSULOTNI YETKAZIB BERISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH

**Kamalov Sherzodbek Sabirovich**
*Andijon davlat texnika instituti, assistenti*
*E-mail: kamalovsherzodbek1986@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada taqsimot omborlariga mahsulot yetkazib berishni tashkil etish logistika sohasida muhim masalalardan biridir. Asosiy e'tibor mahsulotni ishlab chiqaruvchidan omborga o'z vaqtida minimal xarajat va yuqori ishonchlilik bilan yetkazib berish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan. Logistika tizimida taqsimot omborlariga mahsulotni yetkazib berishni samarali tashkil etish masalasi o'rganildi. Taqsimot omborlariga mahsulot yetkazib berish jarayonini optimallashtirish, etkazib berish vaqtini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va xatoliklarni minimallashtirishga qaratilgan jarayonlarning qanday samarali tashkil etilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlari:** logistika, taqsimot, ombor, mahsulot, zahira sotuv, istemolchi, yetkazib berish, saqlash, tizim, transport xarajatlari, optimallashtirish, xizmat ko'rsatish, rejalashtirish.

**Аннотация.** В данной статье организация доставки продукции на распределительные склады является одним из важных вопросов в области логистики. Основное внимание уделяется оптимизации процесса своевременной доставки продукции от производителя на склад с минимальными затратами и высокой надежностью. Изучается вопрос эффективной организации доставки продукции на распределительные склады в логистической системе. Была предоставлена информация о том, как эффективно организовать процессы, направленные на оптимизацию доставки продукции на распределительные склады, сокращение сроков доставки, снижение затрат и минимизацию ошибок.

**Ключевые слова:** логистика, распределение, склад, продукт, складские продажи, потребитель, доставка, хранение, система, транспортные расходы, оптимизация, сервис, планирование.

**Annotation.** In this article, organizing the delivery of products to distribution warehouses is one of the important issues in the field of logistics. The main focus is on optimizing the process of delivering products from the manufacturer to the warehouse on time, with minimal cost and high reliability. The issue of effectively organizing product delivery to distribution warehouses in the logistics system is studied. Information is provided on how to effectively organize processes aimed at optimizing the process of delivering products to distribution warehouses, reducing delivery time, reducing costs, and minimizing errors.



ISSN 3030-3907

**Keywords:** logistics, distribution, warehouse, product, inventory, customer, delivery, storage, system, transportation costs, optimization, service, planning.

**Kirish**

Jahon savdosining doimiy rivojlanishi transport bozorlarida, shu jumladan mamlakatimiz transport tizimida tub o‘zgarishlarni talab qiladi. Xalqaro standartlarga va eng yangi texnologiyalarga muvofiq transportni rivojlantirish ekspeditorlik xizmatlarini rivojlantirish sohasidagi mutaxassislarning qiziqishini kuchaytirdi. Raqobatning kuchayishi va kuchayishi hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish darajasiga eng katta e‘tibor berilishiga olib keldi [1].

Logistika sohasidagi faoliyat ko‘p qirralidir. Ularga tashish va taqsimot jarayonlari, zahira va ombor xo‘jaliklarini boshqarish, axborot tizimini tashkil qilish, tijorat va moliyaviy faoliyatlarni boshqarish kabilar kiradi. Zamonaviy logistika tizimida yuklarni ishonchli, tezkor va tejamkor tarzda yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yetkazib beruvchilarni to‘g‘ri tanlash korxonaning operatsion samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda mijozlar ehtiyojini optimal darajada qondirishga xizmat qiladi. Logistikaning asosiy maqsadi ta’minot tizimidagi moddiy resurslarni optimallashtirish, ishlab chiqarish bo‘g‘inlarining xom ashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor mahsulotlarga bo‘lgan talabini samarali qondirish va tayyor mahsulotni iste’molchilarga yetkazib berish uchun qilinadigan barcha harakatlarni hisobga olgan holda umumiy harajatlarni kamaytirishdan iboratdir [2].

**Adabiyotlar tahlili va metadologiyasi**

Logistikada taqsimot omborlariga mahsulotlarni yetkazib berish masalalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar mavjud. Ularning ko‘pi quyidagi yo‘nalishlarga qaratilgan:

Yetkazib berish tarmoqlari va ularning optimallashuvi – Taqsimot omborlarini samarali joylashtirish va etkazib berish tarmoqlarini optimallashtirish metodlari. Bunga matematik modellar, simulyatsiya usullari va algoritmlar orqali optimallashtirish kiradi. Logistik tarmoqlarni rejalashtirish – Taqsimot omborlari tarmog‘ini qurishda yetkazib berish vaqtlarini qisqartirish va transport xarajatlarini kamaytirish uchun matematik va statistik modellardan foydalanish. Sifat va vaqtni boshqarish – Mahsulotlarni yetkazib berishdagi sifatni boshqarish, masalan, etkazib berishning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash. Barqarorlik va yashil logistika – Taqsimot omborlariga mahsulotlarni yetkazib berish jarayonida ekologik jihatlarga ham e’tibor qaratilishi kerak. Barqaror logistika va yashil transport tizimlari ishlab chiqilishi bu yo‘nalishdagi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, logistika tizimlarida ekologik ta’sirni kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar mavjud. Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, logistika sohasida ham turli metodologiyalar va metodlar, tajriba asosidagi ilmiy yondashuvlar ishlatilmoqda.



ISSN 3030-3907

Odatda, ushbu metodologiyalarni birlashtirib, amaliy ishlar va ilmiy izlanishlarda qo‘llash hamda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, taqsimot omborlariga mahsulotlarni samarali yetkazib berishning asosiy maqsadi hisoblanadi [3].

Zamonaviy adabiyotlarda mavjud iqtisodiy sharoitlar bilan bog‘liq holda sifat muammolariga tobora koproq e‘tibor berilmoqda. Ko‘plab xorijiy va mahalliy mualliflar o‘zlarining o‘qishlarida yuklarni yetkazib berish tezligi va sifati masalalariga doimo muhim o‘rin ajratib kelganlar, ayniqsa, A.Feygenbaum, E. Deming, K. Ishikava, S. Siro, J. Xarrington kabi klassiklarning asarlarini alohida ta‘kidlash mumkin. Aynan ularning tadqiqotlari va rivojlanishi, shuningdek universal boshqaruv falsafasini yaratishda amaliy qo‘llanilishi bugungi kunda rivojlangan ko‘plab davlatlarga (AQSH, Yaponiya va boshqalar) jahon iqtisodiyotining etakchisi bo‘lishga yordam berdi. Ammo transport kompaniyalarining samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sifatini va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning murakkabligini oshirishning amaliy va nazariy muammolari hali ko‘rib chiqilmagan. Transport kompaniyalari faoliyatida tezlik va sifatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilinishi ishlab chiqaruvchidan yakuniy foydalanuvchiga mahsulotni taqsimlash jarayonini optimallashtiradi. Ushbu maqola dolzarbligini belgilaydi, uning maqsadi yuklarni yetkazib berish jarayonini boshqarish va tashkil etishga yangi yondashuvlarni shakllantirishdan iborat [4-5-6-7].

Yuqorida keltirilganlar taqsimot omborlariga mahsulotlarni yetkazib berish tizimini samarali tashkil etishning ilmiy asoslarini tashkil etadi. Ushbu metodologiyalarni amalda qo‘llash orqali taqsimot tizimlarining samaradorligini oshirish mumkin.

**Metod va usullar.** Logistika ikki jihatdan ko‘rib chiqilad boshqaruv va texnologik. Taqsimotni boshqarishni tashkil etish, material oqimlarni rag‘batlantirish va sotishni qo‘llab-quvvatlash tashkiliy yo‘nalishdir. Shunday qilib logistika sohasiga yo‘nalishni tashkil etish material oqimini rag‘batlantiradigan va ta’minot marketingni ta’minlaydigan logistikaning funksional sohasidir. Logistika sohasiga texnologik yo‘nalish transport texnologiyalari, omborxonalar, axborot ta’minoti, rejalashtirish va nazorat qilishni takomillashtirishni amalga oshiradigan logistikaning funktsional sohasi hisoblanadi. Logistikaning individual funktsional yo‘nalishlari (1-jadvalda ko‘rsatilgan).

**1-jadval.**

**Turli sohalarda hal qilinadigan logistikaning asosiy vazifalari.**

| № | Logistika yo‘nalishlari | Asosiy vazifalar |
|---|---|---|



ISSN 3030-3907

| | | |
|---|---|---|
| 1 | Zaxiralar | Kerakli zaxirani rejalashtirish, shakllantirish va saqlash |
| 2 | Ishlab chiqarish | Moddiy tovarlar ishlab chiqarish va moddiy xizmatlarni ishlab chiqarish (ilgari yaratilgan tovarlar qiymatini oshiradigan ishlar) |
| 3 | Taqsimot | Iste'molchilar talabini aniqlash, iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, taqsimotning oqilona shakllarini tanlash va savdoni tashkil etish. |
| 4 | Mahsulotni tashish | Transport turini, transport vositasini tanlash, mahsulotni yetkazib berishni rejalashtirish va nazorat qilish. |
| 5 | Omborxona va omborni qayta ishlash | Ombor joylashgan joyni tanlash, omborni boshqarish, qadoqlash. |
| 6 | Axborot ta'minoti | Moddiy oqimlar harakati to'g'risida ma'lumot to'plash, logistika jarayonlarini komputer yordamida qo'llab quvvatlash. |

Taqsimot – bu logistika sohasi bo'lib ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yo'lda material oqimini boshqarish uchun barcha vazifalarni o'z ichiga oladi, amalga oshirish vazifasi qo'yilgan paytdan boshlab mahsulot iste'molchiga yetkazib berilgunga qadar yoki sotishdan keyingi xizmat tugagunga qadar. Logistikaing qo'llanilishi natijasida xom ashyo va tovar zahiralari minimallashadi, yetkazib beruvchilar va zahiralar optimal tarzda joylashadi, tovarlarning ishlab chiqarishdan iste'mol sohasigacha bo'lgan harakat vaqti qiqaradi, bularning barchasi esa pirovard natijada umumiy harajatlarning kamayishiga olib keladi [8-9]. Omborni rejalashtirishga qo'yiladigan talablar:

- mahsulotlarni joylashtirishning samarali usullarini qo'llash imkoniyati;
- saqlash birliklarining to'liq saqlanishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash;
- mahsulotlarning ayrim turlarini boshqalar bilan birgalikda saqlash paytida ularga salbiy ta'sirini bartaraf etish, mahsulot sifatini saqlash uchun shart-sharoitlarni ta'minlash;
- transport uskunalari, ko'tarish vositasidan samarali foydalanish imkoniyati; mahsulotlarga qulay kirish;
- ombor jarayonining oqimi va uzluksizligini ta'minlash [10].

Taqsimot omborlari — bu mahsulotlarni saqlash, boshqarish, qayta ishlash va so'ngra ularni xaridorlarga yoki boshqa bo'limlarga yetkazib berish uchun mo'ljallangan infratuzilmalardir. Mahsulotlarni samarali yetkazib berish tizimlarini tashkil etish logistikada quyidagi asosiy komponentlardan iborat:


ISSN 3030-3907

Omborlarni boshqarish - Mahsulotlarni saqlash va ularni rejalashtirilgan muddatlarda yetkazib berish uchun omborlarni samarali boshqarish usullari.

Tashish va yetkazib berish - Taqsimot omboridan mahsulotni xaridorga yoki keyingi ishlab chiqarish bo‘limlariga uzatish uchun transport tizimlaridan foydalanish.

Omborni tashkil qilish va saqlashning eng zamonaviy shakllaridan biri bu omborxonalarni tashkil etishdir. Ombor do‘koni turli xil mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasiga ega bo‘lgan omborxona bo‘lib, ko‘p mahsulot assortimentida qadoqlangan mahsulotlarni joylashtirish, saqlash va qidirish uchun mo‘ljallangan. Shu munosabat bilan, ushbu omborning ishlashi normaldir. Asosiysi shundaki, agar omborda ortiqcha tranzit miqdori rejalashtirilgan tranzit hajmidan oshib ketsa, ularni tezda kichik ulgurji xaridorlarga sotishga ruxsat beriladi. Buning uchun savdo maydonchasi va qabul qilish, yig‘ish va jo‘natish joylari, shuningdek ma'muriy va xizmat xonalari omborxonada joylashgan bo‘lishi kerek [11].

**Muxokama.** Zaxira logistikasini aniqlashdan oldin, biz zaxira nima ekanligini bilib olamiz. Zaxira har qanday iqtisodiy tizimning ajralmas elementi bo‘lib, ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish, moddiy boyliklarning notekisligini yo‘q qiladi. Zaxiralarning mavjudligi korxona iqtisodiyotidagi ijobiy va salbiy holatlar sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Ortiqcha zaxiralar sezilarli moliyaviy resurslarni yo‘naltiradi. Tovar-moddiy zaxiralar - bu sanoat iste'moli uchun mo‘ljallangan har xil turdagi moddiy resurslar. Biz zaxiralarni shakllantirishning asosiy sabablarini ajratib ko‘rsatamiz:

- yetkazib berish hajmining bir martalik iste'mol hajmiga nomuvofiqligi;
- materiallar qabul qilingan payt va uning iste'moli o‘rtasidagi vaqt oralig‘i;
- hududning iqlim sharoiti;
- transport xarajatlarini pasaytirish [12].

Zaxira logistikasi - omborlarda tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish va tashkil etish bilan shug‘ullanadi va ombor operatsiyalarining xarajatlarini nazorat qiladi. Keyingi, zaxiralar qanday funktsiyalarni bajarishini ko‘rib chiqamiz:

1. Yig‘ish funktsiyasi zaxiralarning asosiy funktsiyasidir. Masalan, yozda mahsulotga talab yuqori bo‘lsa, yozgi talabni ta'minlash uchun qish mavsumida ishlab chiqarishni ko‘paytirish kerak. Shunday qilib, ishlab chiqarish mahsulotlarining to‘planishi zaxiralarning yetishmasligi tufayli yo‘qotishlardan qochadi.

2. Inflyatsiyani himoya qilish funktsiyasi. Naqd pulni bankka qo‘yib, kompaniya yaxshi daromad keltirishi mumkin. Bankka qo‘yilgan pulga qaraganda zaxiralarning qiymati tezroq o‘sishi mumkin. Binobarin, zaxiralar yaxshi sarmoyadir, ammo saqlash xarajatlari va xavflarini hisobga olish kerak.


ISSN 3030-3907

3. Xarajatlarni boshqarish funktsiyasi. Buyurtma hajmining o‘zgarishi chegirmalar olish uchun buyurtmaning hajmini o‘zgartirishi bilan, aks holda zaxiralarni ko‘paytirib, biz boshqa loyihalarga sarmoya kiritish imkoniyatini kamaytiramiz. Zaxira tushunchasi tanqislik tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Kamchilikning quyidagi turlari ajratiladi:

▪ tabiiy (ma'lum turdagi resurslarning etishmasligi);
▪ texnologik (ular kerakli narsani qilmaganliklari sababli shakllangan);
▪ sun'iy (sun'iy ravishda paydo bo‘lgan).

Agar tanqislik ehtimoli mavjud bo‘lsa, vaziyatdan qat'i nazar, ishlab chiqarishning zarur darajasini ushlab turishga imkon beradigan zaxiralarni yaratish kerak [13].

**Natija**. Masalaning qo‘yilishi. Sanoat korxonasining tayyor mahsulotlari omborida 900 dona mahsulot zahirasi mavjud. Ularning ombordagi minimal (rezerv) qoldig‘i 100 donani tashkil qiladi. Korxona mahsulotlari uchta taqsimot omborxonasi orqali tarqatiladi. Birinchi ombordagi mahsulot zahirasi 80 dona, kunlik o‘rtacha savdo hajmi 20 tani tashkil qiladi. Ikkinchi omborxonadagi mahsulot zahirasi 100 dona, uchunchisida esa 120 dona bo‘lib, ularda kunlik o‘rtacha savdo hajmi mos ravishda 25 va 40 tani tashkil qiladi [14].

Tayyor mahsulotlar omboridan, taqsimot omborlarigacha mahsulotni yetkazishning, bu omborlarda ularning mavjud soni va sotuv hajmini e‘tiborga olgan holda, optimal hajmini aniqligi (1-rasmda berilgan).

1. Taqsimot omborlarining sotuv sutkasida tayyor mahsulotlar omboridan zahiralar bilan to‘ldirilishini hisobga olgan holda mahsulotlar bilan o‘rtacha ta‘minlanganligini $T_{sr}$ aniqlaymiz:

$$T_{o‘r} = \frac{Q_{o‘r} + E\, z_{t.o}}{E\, p_{t.o}}$$

Bu formulada Qo‘r — tayyor mahsulotlar omboridagi taqsimlanuvchi mahsulotlar zahirasi (900 - 100 = 800 dona); $\Sigma Z_{t.o.}$ — taqsimot omborlarida joylashgan mahsulotlar yig‘indisi (80 + 100 + 120 = 300 dona); ΣPt.o. — taqsimot omborlaridagi kunlik o‘rtacha sotilgan mahsulotlar yig‘indisi (20 + 25 + 40 = 85 dona).

$$T_{o‘r} = \frac{800+3}{85} \text{ 1294 sutka.}$$


ISSN 3030-3907




**1-rasm. Taqsimot omborlariga mahsulotni yetkazish sxemasi.**

2. Tayyor mahsulotlar omboridan birinchi taqsimot omboriga yuboriluvchi mahsulotlar soni Q1 quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q_1 = (T_{o'r} - Z_{t.o.1} / P_{t.o.1} \times P_{r.s.1} \text{ dona})$$

Bu formulada To‘r — barcha taqsimot omborlarining mahsulotlar bilan o‘rtacha ta‘minlanganligi (12,94 sutkaga), korxonaning tayyor mahsulotlar ombori tomonidan to‘ldirilishini hisobga olingan holda; $Z_{t.o.1}$ — birinchi taqsimot omboridagi mavjud mahsulotlar zahirasi (80 dona); $P_{t.o.1}$ — birinchi taqsimot omboridan kunlik sotuv hajmi (20 dona).

$$Q_1 (12,94\text{-}80/20) \times 20 = 178,8 \text{ yoki } 179 \text{ dona.}$$

3. Shunga o‘xshash ravishda tayyor mahsulotlar omboridan № 2 va № 3 taqsimot omborlariga jo‘natish kerak bo‘lgan mahsulotlarning optimal partiyasini hisoblaymiz:

$$Q_2 (12,94\text{-}100/25) \times 25 = 223,5 \text{ yoki } 223 \text{ dona.}$$

$$Q_3 (12,94\text{-}120/40) \times 40 = 397,6 \text{ yoki } 398 \text{ dona.}$$

Olingan natijalarni tayyor mahsulotlar omboridagi taqsimlangan mahsulotlarning umumiy hajmi bilan taqqoslaymiz: 179 + 223 + 398 = 800 dona. Shunday qilib, berilgan ma‘lumotlarni hisobga olgan holda zavodning tayyor mahsulotlar zahirasini № 1, 2 va 3 taqsimot omborlariga taqsimlashning taxminiy ulushlari mos ravishda 22%, 28% va 50% ni tashkil qilar ekan [15-16-17].

**Xulosa**

Logistikada taqsimot omborlariga mahsulotni yetkazib berishni tashkil etishda zamonaviy taqsimot tizimlari eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali boshqarish kompaniyaning umumiy ishlash samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Mahsulotni omborlarga yetkazib berish uchun transport vositalarini to‘g‘ri tanlash optimal yo‘nalishlar va vaqt rejalarini ishlab chiqish xamda to‘liq inventarizatsiya omborlarning to‘liq ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Taqsimot omborlariga mahsulotlarni yetkazib berishning samarali boshqaruvi tijorat va ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashga shu bilan birga mijozlarga xizmat


ISSN 3030-3907

ko‘rsatish sifatini oshirishga yordam beradi. Taqsimotning samarali tizimini yaratish, shuningdek zaxiralar va mahsulotlar harakati bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlarni kamaytiradi, xarajatlar va vaqt sarfini optimallashtiradi [18-19].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Н.Г. Филонов, Л.В. Коваленко, С.К. Дащинская. Анализ структуры и особенностей формирования потоков полезных ресурсов в экономических (логистических) системах. -Томск: Издательство ТГПУ, 2011. – 252 с.
2. Sabirovich, Kamalov Sherzodbek. "LOGISTIK TIZIM ICHIDA MODDIY VA AXBOROT OQIMLARNI TAQSIMOTINI TASHKIL YETISH." *IJODKOR O‘QITUVCHI* 3.32 (2023): 127-133.
3. Гаджинский А.М. Логистика: Учебник для высших и средних специальных заведений / А.М.Гаджинский. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Информационно-внедренческий центр «Маркетинг», 2000. – 228 с.
4. Sabirovich, Kamalov Sherzodbek. "TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI NAZORAT QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH." *Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari* 1.1 (2023): 306-311.
5. Гаджинский А.М. Практикум по логистике / А.М.Гаджинский. – 4-е изд.,– М.: ИВЦ «Маркетинг», 2005. – 260 с.
6. 17. Ғаффаров, М. Т., and Ш. С. Камалов. "ХАЙДОВЧИЛАР ИШ РЕЖИМИНИ ХАЛКАРО ТАШИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ХАВФСИЗ ХАРАКАТНИ КАФОЛАТЛАШ." *Journal of new century innovations* 18.5 (2022): 92-99.
7. Молокович, А. Д. Транспортная логистика: учебник–Минск: Вышэйшая школа, 2019. – 463 с.: ил.
8. Sabirovich, Kamalov Sherzodbek. "AVTOTRANSPORT OQIMINI MODELLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI." *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 290-298.
9. Sabirovich, Kamalov Sherzodbek. "TRASPORT VOSITALARINI IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA INTELLEKTUAL TIZIMLARNI YORITISH OMILLARI." *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 214-222.
10. Камалов, Шерзодбек. "ROUTING ISSUES BASED ON MATHEMATICAL MODELS IN TRANSPORT LOGISTICS." *Interpretation and researches* 4 (50) (2025).
11. SOBIROV, SD, and SH KAMALOV. "WAYS OF DEVELOPING A MODERN CAR SERVICE." *Изложены материалы докладов II Международной научно-практической конференции молодых ученых,*



ISSN 3030-3907

*студентов и учащихся колледжей «Наука–транспортной инфраструктуре». Для молодых ученых, научных работников, магистрантов, аспирантов, студентов технических вузов, учащихся колледжей, а также инженерно*.

12. Кузьбожев Э.Н. Логистика / Э.Н.Кузьбожев, С.А.Тиньков. – М., 2004. – 216 с.
13. Taxirjanovich, Ismailov Sarvarbek, and Zingirov Saidolim Jo‘rayevich. "AVTOMOBILLARNING TORMOZLANISH XUSUSIYATLARINI NAZARIY VA EKSPERIMENTAL TADQIQOTLASH." *Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari* 1.1 (2023): 268-271.
14. Миротин Л.Б. Системный анализ в логистике / Л.Б.Миротин, Ы.Э.Ташбаев. – Москва: «Экзамен», 2002. – 479 с.
15. Камалов, Шерзодбек. "AVTOSERVISNI BOSHQARISHDAGI MUAMMO VA KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH CHORA TADBIRLARI." *Свет науки* 6 (41) (2025).
16. E. Karimov. Avtotransport vositalarida yuk tashish va avtotransport logistikasi / Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: ―Sharq‖, 2013. – 320 b.
17. Насиров, Илхам Закирович, and Шерзодбек Сабирович Камолов. "Bobur shox va s. zunnonova ko‘chalari kesishmasiga svetoforlarni o‘rnatish." *Journal of new century innovations* 7.5 (2022): 102-107.
18. Неруш Ю.М. Логистика: учебник для вузов / Ю.М.Неруш. – 3-е изд., - М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 2003. – 494 с.
19. Козловский, В.А. Логистический менеджмент. / В.А.Козловский, Э.А.Козловская, Н.Т.Савруков. – СПб, 2002. – 267 с.



ISSN 3030-3907